



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNY  
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION  
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ  
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ  
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»**

**IN THE NAME OF  
ABU RAYHAN BERUNI  
URGANCH STATE UNIVERSITY**

**“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,  
AND ECONOMY IN THE FIELD OF  
CONSTRUCTION AND  
ARCHITECTURE”  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
REPUBLICAN CONFERENCE**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
1-TO‘PLAMI**

**Urganch 2025-y**



## **TASHKILY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b., professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmuratov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish” kafedrasida dotsenti, PhD - **A.A. Qutliyev**

### **TASHKILY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod ishlar bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish” kafedrasida mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura” kafedrasida mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

см. перед обратной засыпки . Эти меры уменьшает риск продолжительного контакта подземных частей отвоздействия солей.

Строительство в условиях засоленных грунтов- работа очень сложная, требующая применение конкретных научно обоснованных, экономически недорогих и результативных мер. Перед строителями и, проектировщиками и, научными работникам работающими в засоленных грунтовых условиях предстоит большие задачи которых необходимо успешно решить .

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР**

1. Р.Воргас, Е.И.Панкова, С.А.Балука, П.В.Красильникова. Руководство по управлению засоленными почвами.
2. Бабушкин В. И. Физико-химические процессы коррозии бетона железобетона. М., Стройиздат, 1968.
3. Газиев У. А. Коррозия и долговечность строительных изделий и конструкций. Ташкент – 1979.
4. Белалаев Г. А. , Медведев В. М. , Мощанокый Н. А. , Защита строительных конструкций от коррозии. М. , Стройиздат, 1964.
5. Мощанокый Н. А. Повышение стойкости строительных материалов и конструкций, работающих в условиях агрессивных сред. М. , Стройиздат, 1962.

### **AVTOMOBILLAR TO‘XTASH JOYLARI VA GARAJLAR**

Yuldashev Kamildjan

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti

“Qurilish” kafedrası o‘qituvchisi (tel.+998991542680),

Yuldashevkamildjan1959@mail.com

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bugungi zamonaviy shaharlarimizda avtomobillarni saqlash joylari muammolariga, transport vositalarini to‘xtab turish va saqlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish joylarini avtomobil taraqqiyotining yaqin kelajakdagi o‘shish

sur'atini ko'zda tutgan holda, shahar hududi maydonlarini tejash, texnik-iqtisodiy, me'moriy-kompozitsion va sanitar-gigiyenik samaradorligini oshirishga bag'ishlanadi.

### **Аннотация**

Статья посвящена проблемам парковок в современных городах, мест стоянки и хранения транспортных средств, а также их технического обслуживания с учетом перспектив роста автомобильного транспорта в ближайшем будущем, экономии городского пространства, повышения технико-экономической, архитектурно-композиционной и санитарно-гигиенической эффективности.

### **Abstract**

This article is devoted to the problems of parking lots in our modern cities, places for parking and storing vehicles, and their technical maintenance, taking into account the near future growth rate of automobile development, saving urban space, increasing technical and economic, architectural and compositional and sanitary and hygienic efficiency.

### **Kalit so'zlar**

Shaharsozlik me'yoriy hujjatlari, shaharning barcha tarkibiy qismlari, ko'chaning o'tkazish qobiliyati, shahar hududi maydonlarini tejash, texnik-iqtisodiy, me'moriy-kompozitsion va sanitar-gigiyenik samaradorlik.

### **Ключевые слова**

Градостроительные нормативные документы, все компоненты города, пропускная способность улиц, экономия городского пространства, технико-экономическая, архитектурно-композиционная и санитарно-гигиеническая эффективность.

### **Keywords**

Urban planning regulatory documents, all components of the city, street capacity, saving urban space, technical and economic, architectural and compositional and sanitary and hygienic efficiency.

### **Asosiy qism**

Tarixan shakllangan shaharlarda, hattoki bugungi zamonaviy shaharlarimizda avtomobillarni saqlash joylari muammosi to'lig'icha yechilmagan. So'nggi 10-15 yil ichida transport vositalari (ayniqsa shaxsiy avtomobillar soni)ning keskin darajada oshib ketishi, shaharning barcha tarkibiy

qismlarida, bozorlar, savdo markazlari va rastalari, madaniy-maishiy obyektlari va boshqa ko'pgina joylarda tirbandlikni vujudga keltiribgina qolmay, alohidagi maxsus maydonlarning yetishmasligi tufayli ko'cha qatnov qismining chetki polosalari to'xtab turish joylariga aylanib qolmoqda. Natijada bu narsa ushbu ko'chaning o'tkazish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yo'l-transport hodisalarini ortishiga olib kelmoqda. Transport vositalarini to'xtab turish va saqlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish joylarini avtomobil taraqqiyotining yaqin kelajakdagi o'sish sur'atini ko'zda tutgan holda, shahar xududi maydonlarini tejash, texnik-iqtisodiy, me'moriy-kompozitsion va sanitar-gigiyenik samaradorligini maksimallashtirishga intilgan holda loyihalaniadi. Mikrorayonlarda avtomobillarni saqlash uchun to'xtab turish joylari va garajlar bolalar o'yingohlaridan, maktab, bolalar bog'chalaridan uzoqroq joylashtiriladi.

Shaharsozlik me'yoriy hujjatlarida shaharning har mingta aholisiga hisobiy davrda 180 ta avtomobil, istiqbolda esa 250 ta avtomobil hisob-kitob qilinadi. Turar-joylarda avtomobillarni saqlash meyorlari bo'yicha 75% avtomobil yopiq turdagi garajlarda, qolgan 25% avtomobil esa ochiq turdagi avtomobillarni saqlash joylarida rejalashtiriladi. O'z navbatida bu maydon mikrorayon hududi bo'ylab, xizmat qilish radiusidan kelib chiqqan holda taqsimlanadi. Aholi, o'z shaxsiy avtomobili saqlanadigan garajalargacha uzog'i bilan 8-10 daqiqada borishi lozim, ya'ni piyodalar yo'li avtomobiligacha 800 m ni tashkil etadi (I-IV zonalar uchun bu masofa maksimal hisoblanadi). Turar-joy binolaridan ochiq avtomobillar saqlash joyigacha esa 200 m dan oshmasligi kerak. Bu talab shimoliy rayonlarda 150 m gacha belgilanadi. Me'yoriy xizmat radiusini saqlagan holda garaj va ochiq avtomobillar saqlash joylari sanoat zonalarini bilan sanitar-himoya zonalarida, temir yo'llarga ajratilgan hududlarda, relyefi keskin bo'lgan qurilish uchun noqulay maydonlarda joylashtirilishi mumkin. Ko'p qavatli turar-joy tumanlarida ochiq avtomobillar saqlash joylari

kamida 25-100 avtomobilga mo'ljallash taklif etiladi. Bunday maydonlarda quyosh nuridan saqlash uchun soyabonlar, atroflariga himoya uchun ko'kalamzorlar

rejalashtiriladi. Shahar hududini tejash maqsadida 25-100 o‘rinli yer osti garajlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday inshootlarni loyihalashda mavjud maydondagi qurilishning xususiyatlarini, ko‘kalamzorlashtirish, relyef, yer osti injenerlik tarmoqlari va gidrogeologik sharoitlarni inobatga olish zarurdir. Ba’zi hollarda, yer osti sharoitidan kelib chiqqan holda 2-3 qavatli yer osti garajlarini loyihalash mumkin. Yer osti garajlari ko‘p qavatli yer usti garajlariga nisbatan qurilish bir qancha qimmat bo‘lishiga qaramay, u o‘ziga xos afzalliklarga ega, bu avvalombor shahar maydonlaridan samarali foydalanish bo‘lib, qolaversa, turar joy tumanlarining normal hayotiga hech qanday halaqit bermaydi va aholi uchun ham qulaydir.

Yangi qurilayotgan turar-joy tumanlarida, garajlarni binolarning pastki qavatlarida, yerto‘la qavatlarida rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Ichki yo‘llarda transport vositalari qatnovini kamaytirish maqsadida, ochiq avtomobillar saqlash joylari va garajlarni mikrorayonga kirish qismlarida joylashtirish ko‘zda tutiladi. Garajlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shahar magistrallariga chiqishga yoki ulardan kirishga ruxsat etilmaydi. Garajlar va ochiq avtomobillar saqlash joylari turar-joy va jamoat binolaridan kengligi 10-15 metr bo‘lgan daraxtzor yoki butazor bilan himoyalaniishi lozim.

Yengil avtomobillarni korxonalar oldida vaqtinchalik to‘xtab turishi quyidagi joylarda tashkillashtirilishi mumkin:

- avtomobillarni vaqtinchalik to‘xtab turish joyi – korxonalar, muassasalar va boshqa shunga o‘xshash binolarning (ishchi va xizmatchilarning, kelib-ketuvchilarning mashinalari uchun), stadionlarning, teatr, kinoteatr, konsert, tomosha va ko‘rgazma zallarining oldilarida joylashtiriladi (kelib-ketuvchilar avtomobillari 2-4 soatgacha saqlanadi);

- avtomobillarni vaqtinchalik to‘xtash joylari – vokzallar, do‘konlar, bozorlar, savdo markazlari, maishiy xizmat obyektlari oldilarida joylashtiriladi (kelib-ketuvchilar avtomobillari 1 soatgacha saqlanadi). Xizmat ko‘rsatuvchi

obyektdan avtomobillarni vaqtinchalik to'xtash va to'xtab turish joylarigacha bo'lgan masofalar quyidagilardan:

- vokzallarning kutish zallaridan, temir yo'l platformalaridan, savdo va maishiy muassasa obyektlaridan -150 m dan;

- boshqa barcha turdagi aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar va jamoat binolaridan, istirohat bog'lariga kirish joylaridan, ko'rgazma va stadionlardan – 300 m dan oshmasligi lozim.

Shaharning markaziy qismlarida avtomobillarning vaqtinchalik to'xtash va to'xtab turish joylari uchun birinchi navbatda ochiq maydonlar zarur. Ochiq to'xtab turish joylari, odatda, qatnov qismidan, ya'ni tranzit harakatidan himoyalangan, alohida yo'lak bilan kiriladigan maxsus maydonlarga joylashtiriladi. Ochiq to'xtab turish joylarida bitta avtomobil uchun ajratiladigan maydonlar yuzasi quyidagicha ajratiladi:

	<b>Joylashish sxemasi</b>	<b>Stoyankaning 100 m polosasidagi avtomobillar soni</b>	<b>1 ta avtomobillar uchun ajratiladigan maydon kv.m</b>
	1 qatorli to'g'ri joylashish	18	30.5
	2 qatorli to'g'ri joylashish	36	28.0
30°	1 qatorli burchak ostida	21	37.0
	2 qatorli burchak ostida	42	28.8
45°	1 qatorli burchak ostida	29	28.5
	2 qatorli burchak ostida	58	22.5
60°	1 qatorli burchak ostida	39	26.2
	2 qatorli burchak ostida	78	19.8
90°	1 qatorli burchak ostida	45	25.8
	2 qatorli burchak ostida	90	18.0

Yer osti garaj va to'xtash joylarining chuqurlik sxemasini tanlash ularning ustidagi ekspluatatsiya qilinadigan maydonchadan foydalanish

sharoitidan tashqari, joyning gidrogeologik xususiyatlari va relyefiga bog'liq. Agar yer osti suvining sathi yer yuzasidan 3 m dan ko'proq chuqurlikda bo'lsa yer osti shakli, undan kamroq bo'lganda yarim yer osti garaj, to'xtash joylari quriladi. Joyning relyefini hisobga olishda tabiiy relyefni maksimal saqlab qolish tamoyilining iqtisodiy samaradorligini nazarga olish lozim. Garaj to'xtash joylarining turar-joy uylarigacha bo'lgan oraliq avtomobillarning soniga ko'ra quyidagilardan oshmasligi kerak: 50 avtomobil-kamida 15 metr; 100 tagacha-25 metr va 210 tadan oshiq bo'lganda-50 metr. Turar-joy uylari ostidagi garaj-to'xtash joylari, o'zlarining mashinalari kunda foydalanuvchi mashina egalarining ehtiyojlarini to'laroq qondiradi. Biroq bir turdagi uylarning yerto'lalarini shu maqsadda moslashtirish ancha qiyin, chunki bunda konstruktiv sxemalar mos kelmaydi. Xonadonlari uchinchi qavatdan boshlanadigan ikkinchi qavati texnik qavat bo'lib hizmat qiluvchi turar joy uylarida garaj-to'xtash joylarini joylashtirishi ko'proq istiqbolli ko'rinadi. Bunda birinchi qavatda ochiq joylar hosil bo'lib ular faqatgina yuk ko'taruvchi tayanch va zina-lift kataklari bilan chegaralanadi. Amaldagi me'yorlarga ko'ra sig'imni 100 o'rindan ko'proq bo'lgan garajlardan noturar joy mintaqasida joylashgan jamoat binosigacha bo'lgan minimal sanitar oraliq faqat 20 metrni tashkil etish kerak.

Noturar joy mintaqalarda joylashgan garaj-to'xtash joylariga sig'im va qavatlilikni oshirish talablardan tashqari quyidagilarni ham hisobga olish zarur:

1. Harakat va manevrlash uchun yaxshiroq sharoit yaratishning maqsadga muvofiqligi;
2. Ichki qavatlarda avtomobillarning tranzit harakatini olib borish mumkinligi;
3. Binoning yer usti va yer osti qismda uning konstruktiv shemasiga va rejaviy strukturasi prinsiplial o'zgarish kiri-tilmaydigan mahalliy sharoitda joylashtiruv va yarus turlarini o'zgarishning maqsadga muvofiqligi;
4. Eng asosiy zaruriyat garajlarning rejadagi gabaritlarini chegaralash bo'lmaydi, shahar yo'llariga yo'nalgan tarafdin bo'lishga harakat qilish lozim;

5. Garaj binosining hajmiy fazoviy va me'moriy yechimining har xil sharoitlarda shaxar landshaftiga yaroqliligi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Isamuxamedova D.U., Ismailov A.T., Xotamov A.T. Injenerlik obodonlashtirish va transport. Toshkent. TAQI, 2009, 230 b.
2. Ismoilov A.T. Razvitiye osnov injenernogo oborudovaniya gorodov Sentralnoy Azii. Dok.dis. Toshkent. TAQI, 2006.
3. Nizomov Sh.R., Xotamov A.T. Landshaft konstruksiyasi. Toshkent. TAQI, 2010, 55 b.
4. Nikolayevskaya I.A. «Blagoustroystvo gorodov» M, Visshaya shkola.1990.
5. Sadikova M.A. «Landshaftnaya organizatsiya territoriy mikrorayona». TASI, 2007.
6. SHNQ 2.07.01- 03\* «Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish» Toshkent- 2009.

### **YASHIL INFRATUZILMA ASOSIDA QORAQALPOG'ISTON G'ARBIY-SHIMOLIY SHAHRINING MAHALLIY HUDUDIY REJALASHTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

Niyazova Zaynab Maxsetovna (O'zbekiston)

Berdaq nomidagi QQDU Arxitektura fakulteti stajyor o'qituvchi.

[Zaynabniyazova0505@gmail.com](mailto:Zaynabniyazova0505@gmail.com)

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonning g'arbiy-shimoliy hududlari uchun yashil infratuzilma asosidagi mahalliy hududiy rejalashtirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Tadqiqot urbanizatsiya jarayonlarining ekologik muvozanatga ta'sirini tahlil qilish, mavjud landshaft va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, yashil infratuzilma elementlarini shaharsozlik amaliyotiga integratsiya qilish masalalariga qaratilgan. Yashil infratuzilma konsepsiyasi barqaror rivojlanish, iqlimiy moslashuvchanlik va aholi turmush darajasini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi.